

5. Акмаматов Х.А., Беленко А.А. Создание и совершенствование стада каракульских овец мубарекского заводского типа, материалы международной научно-практической конференции, “Проблемы пастбищного животноводства и экологии пустынь” Самарканд 2000. 6-7 сентября 24-26 бетлар.

UO‘K: 636.32/.38.082.11.

Qorako‘l gullarining joylashish rasmining irsiy asoslarini baholash

G.S.Norboyeva—tayanch doktorant

A.Gaziyev—q.x.f.d., katta ilmiy xodim

Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotasiya. Maqolada qora rangli qorako‘l qo‘ylarini gullarining joylashish rasmi bo‘yicha turli variantlarda juftlashda ushbu xususiyatlarning namoyon bo‘lishi darajalarini o‘rganish natijalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qorako‘l qo‘ylari, qo‘zilari, gomogen va getrogen juftlash, naslga berilishi, gullarining joylashish rasmi

Annotation. The article describes the results of the study of the levels of manifestation of these characteristics during mating of black-colored Karakul sheep in different variants according to the arrangement of flowers.

Key words: Karakul sheep, lambs, homogenous and heterogenous mating, forms of offspring, picture of location of flowers

Kirish. Dunyo miqyosida urchitiluchi qo‘y zotlari maxsuldorlik yo‘nalishlari bilan bir-biridan farq qiladi. Bir guruh qo‘y zotlari mayin jun, boshqa guruhlar yarim mayin jun, yarim dag‘al, dag‘al, jun-go‘sh, go‘sh-jun, sut, go‘sh-yog‘, mo‘yna yo‘nalishlariga ixtisoslashgan bo‘lib, ularning asosiy maxsuloti qayd etilgan mahsulotlar hisoblanadi va ular bilan olib borilgan seliksiya-naslchilik ishlari qayd etilgan mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini takomillashga yo‘naltiriladi.

Qorako‘l qo‘y zoti eng sifatli mo‘yna yo‘nalishidagi zot hisoblanib, baholanadigan belgilarning ko‘pligi ular bilan olib boriladigan seliksiya-naslchilik ishlarini murakkablashtiradi.

Qorako‘l qo‘ylari bilan seleksiya ishlarini olib borishda eng muhim belgilar qatoriga qorako‘l terilari sathida gullarning hosil qiladigan rasmi hisoblanadi.

Qorako‘l gullarining joylashish rasmi asosan 3 xil ko‘rinishda, ya‘ni parallel-konsentrik, parallel-to‘g‘ri va aralash holatlarda uchraydi. Birinchi ikki ko‘rinish maqsadga muvofiq hisoblanib, ular asosan qimmatli yarim doira, qovurg‘asimon va yassi gul tiplarida, aralash ko‘rinish esa qimmatli o‘siq gul tiplarida uchraydi.

T.U.Umirzakov (1977; 1992), M.A.Eakara, J.A.Parjanov, B.A.Ajibekov (2017), R.G.Valiyev(1984), A.Gaziyev (2007) tadqiqotlarida qorako‘l gullari joylashish rasmining seleksion ahamiyati yoritilgan.

Bajarilgan tadqiqotlarga qaramasdan ushbu ko‘rsatkichlarning seleksion ahamiyati va genetik tabiatini to‘liqroq ochib berish qorako‘l qo‘ylari seleksiyasining hozirgi bosqichda ham dolzarb muammosi hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Qorako‘l qo‘ylarini gullarining joylashish rasmi bo‘yicha turli variantlarda juftlashda avlodlarda ushbu ko‘rsatkichlarning namoyon bo‘lish darajalari va ehtimoliy chegaralarini aniqlash tadqiqotning maqsadi etib belgilandi.

Tadqiqot usulublari. Tadqiqotlar Qashqadaryo viloyatining “Muborak” naslchilik MChJda urchitiluvchi qora rangli qorako‘l qo‘ylarida olib borildi. Parallel-konsentrik va parallel-to‘g‘ri

rasimli qo'chqorlar bilan parallel-konsentrik, parallel-to'g'ri va aralash rasimli ona qo'ylar juftlanib, olingan avlodlarda ushbu ko'rsatkichlarning namoyon bo'lish darajalari o'rganildi.

Qo'zilarini seleksion baholash "Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarini baholash (banitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma" (S.Yu.Yusupov va boshqalar, 2015) asosida amalga oshirildi.

Olingan ma'lumotlarga variatsion statistika usullarida ishlov berildi (N.A.Ploxinskiy, 1969).

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotlarda olib borilgan juftlash ishlari natijasida olingan avlodlarning gullarining joylashish rasmi bo'yicha taqsimlanish darajalari o'rganildi. Olingan ma'lumotlar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Turli juftlashda avlodlarda gul rasmlarining namoyon bo'lishi

Juftlash		Jami olingan avlod, bosh	Shundan, % ($X \pm S_x$)		
♂	♀		PK rasmi	PT rasmi	aralash rasmi
PK	PK	270	$68,1 \pm 3,44$	$16,3 \pm 5,57^x$	$15,6 \pm 5,6^x$
	PT	145	$23,4 \pm 7,26^x$	$64,0 \pm 5,0$	$12,6 \pm 7,8^x$
	Aralash	120	$31,7 \pm 7,55^x$	$18,3 \pm 8,2^x$	$50,0 \pm 6,5$
PT	PK	175	$35,4 \pm 6,1$	$37,7 \pm 6,0$	$26,9 \pm 6,5$
	PT	142	$27,5 \pm 7,15$	$50,7 \pm 5,9$	$21,8 \pm 7,42$
	Aralash	110	$21,8 \pm 8,43^x$	$52,7 \pm 6,6^x$	$25,5 \pm 8,24$

X)- $P < 0,001$; X)- $P < 0,05$

Tadqiqotlarda qo'ylarni gul rasmi bo'yicha gomogen va getrogen juftlash asosida avlodlarda maqsadga muvofiq gul rasmlari bilan xarakterlanuvchi avlodlar chiqishini boshqarish mumkinligi aniqlandi. Ushbu holatda eng yuqori natijalarga gomogen juftlashda erishish imkoniyatlarining yuqoriligi qayd etildi. Buni quydagi natijalarda ko'rish mumkin, ya'ni parallel-konsentrik gul rasmi, ota-onalarni juftlashning xususiyati avlodlar salmog'ini $68,1 \pm 3,44$ foizga, parallel-to'g'ri gul rasmi, ota-onalarni juftlashda esa shunday qo'zilar salmog'ini $50,7 \pm 5,9$ foizga yetkazish aniqlandi.

Xulosa: Qorako'l qo'ylarini seleksiyalash jarayonida ularning gul tipi bo'yicha juftlash bilan bir qatorda gullarning joylashish rasmi ham alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq hisoblanadi. 1-rasmda ish jarayoni keltirilgan.



1-rasm. Terisidagi gullarining joylashish rasmi bo'yicha parallel-konsentrik, parallel-to'g'ri va aralash holatdagi qo'zilar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Валиев Р.Г. Теория и практика селекции и разведения черных каракульских овец. Докт.дисс., Москва, 1984, 255 с
2. Газиёв А. Селекционнo-генетические аспекты эффективного использования потенциала каракульских овец в Узбекистане. “Животноводство, кармороизводство и ветеринария”, №2 Алматы-2007 с.28-30
3. Ескара М.А. Паржанов Ж.А. Ажибеков. А Наследование признаков смушкoвости каракульских овец черной окраски скороспелого типа жомартовской популяции. Сб. Науг. Трудов ЮЗНИИЖиР. Т.2. Шымкент, 2017, с.79-81
4. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва, 1969. С.125-130
5. Умурзаков Т.У. Исследование генетических причин разнообразия каракульского приплода по типу смушка при однородном подборе родителей жакетного типа. Автореф. Канд.дисс., Чимкент, 1977, 23 с
6. Умурзаков Т.У. Изменчивость признаков и селекция каракульских овец. Алмата, 1992. 232 с.
7. Yusupov S.Yu. va boshqalar, “Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo‘zilarni baholash (banitirovka qilish) bo‘yicha qo‘llanma”. Toshkent, 2015. 31 bet.

УЎК: 636.32/.38.081:083.37

СУР РАНГЛИ ҚОРАҚҰЛ ҚЎЗИЛАРДА ЖУН ТОЛАСИНИНГ ПИГМЕНТЛАНИШ ДАРАЖАСИНИ БОШҚА ХУСУСИЯТЛАРГА БОҒЛИҚЛИГИ

М.В.Акбарова—таянч докторант

Б.С.Маматов—к.х.ф.ф.д. (PhD), катта илмий ходим,

М.Х.Туранов—к.х.ф.ф.д. (PhD)

Қоракўлчилик ва чўл экологияси илмий-тадқиқот институти

Аннотация. Мақолада сур рангли қоракўл қўзиларида жун толасининг пигментланиш даражасининг қўзилар ўлчами ва рангбаранглигига боғлиқлигини ўрганиш бўйича олинган натижалар ёритилган.

Калит сўзлар: қоракўл қўйлари, қўзилари, сур ранги, рангбаранглик, жун толасининг пигментланиш даражаси, қўзилар ўлчами.

Annotation. The article presents data from a study of the properties of the pigmentation level of hair of Karakul lambs of suras of various colors and sizes.

Key words: Karakul sheep, lambs, sur coloring, coloring, level of hair, pigmentation, size of lambs

Кириш. Сур рангли қоракўл қўзиларининг бошқа селекцион белгилари билан бир қаторда жун толаларининг пигментланиш даражаси муҳим аҳамиятга эга. Шу билан бирга ушбу белгининг қўзилар ўлчами ҳамда уларнинг рангбаранглиги кесимида намоён бўлиш хусусиятларини ўрганиш сур рангли қоракўл терилар товарлик хусусиятларини аниқлашда муҳим аҳамият касб этади. Ушбу кўрсаткичнинг селекцион аҳамияти шундаки, юқори гул кўрсаткичлари шароитида ҳам жун-тола сифатининг қониқарли бўлмаслиги баҳолаш пайтида қўзилар наслини, қоракўл териларининг товарлик қимматлилигини пасайтиради.

Жун толасининг пигментланиш даражаси кўпгина селекцион белгилар билан ўзаро боғлиқликда намоён бўлиши кўпчилик тадқиқотларда ўрганилган. Мазкур белгининг намоён бўлиши ва унинг сифати бошқа муҳим белгилар билан боғлиқ. Бунга гулларнинг